


S.Y. NISHANOV

YOLG'ON VA ALDOV

PSIXOLOGIYASINI
FENOMENOLOGIK
XUSUSIYATLARI



M O N O G R A F I Y A

159
N-69

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

S.Y. NISHANOV

**YOLG'ON VA ALDOV
PSIXOLOGIYASINI
FENOMENOLOGIK XUSUSIYATLARI**

(Monografiya)

TOSHKENT – 2026

UO'K: 159.9.019.4:177.3

KBK 88.52

N 56

S.Y. Nishanov. Yolg'on va aldov psixologiyasini fenomenologik xususiyatlari. (Monografiya). – T.: «Ilm-fan va innovatsiya» nashriyoti, 2026, 112 bet.

ISBN: 978-9910-5307-0-8

Monografiyada shaxsda yolg'onchilik va aldovni namoyon bo'lishi yuzasidan, xorij va o'zbek psixologlarining ilmiy-tadqiqot natijalari nazariy tahlil qilindi. Shaxsda yolg'onchilik va aldovni namoyon bo'lishini aniqlashning psixodiagnostik metodikalari keltirilgan. Shuningdek, shaxsda yolg'onchilik va aldovni bartaraf etuvchi korreksion dastur keltirib o'tilgan. Monografiya oliy pedagogika o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar, maktab, litsey, kollejlarda amaliyotchi psixolog bo'lib ishlayotgan mutaxassislar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 159.9.019.4:177.3

KBK 88.52

Taqrizchilar:

N.M. Mullaboyeva – Tashkent International University “Ijtimoiy fanlar va ta'lim” kafedrası professori v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc);

N.B. Atabayeva – Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti “Psixologiya” kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori (DSc).

Tashkent International University Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi 4-sonli bayonnoma qaroriga asosan nashr qilindi.

ISBN: 978-9910-5307-0-8

© S.Y. Nishanov, 2026;

© «Ilm-fan va innovatsiya» nashriyoti, 2026.

TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI
AXBOROT-RESURS MARKAZI

2026 № 21-97

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborotlar oqimi kuchaygan davrda yolg'on ma'lumotlarni aniqlash, yolg'on axborotlarga nisbatan ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish, yolg'onchilikni oldini olish masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. International Academy of Lie Researchning statistik ma'lumotlariga qaraganda "65 % insonlar kimnidir xafa qilgandan ko'ra, aldashni, 44 % insonlar gapirayotgan voqeasi qiziqroq chiqishi uchun bo'rttirib gapirishni ma'qul ko'rishlari, 2 % insonlar esa yolg'onni zarur deb hisoblashlari"¹ aniqlangan va mazkur ko'rsatkichlar yolg'on tushunchasining inson tomonidan idrok qilinishi, foydalanilishi masalasini taqiq etish zarur ekanligini ko'rsatib bermoqda. Shu maqsadda, yolg'onni poligrafdan tekshirish, sud ekspertizasini o'tkazish, yolg'onchi shaxsining ijtimoiy-psixologik portretini tuzish va undan kadrlarni saralashda foydalanishni yo'lga qo'yish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda shaxs ma'naviy kamoloti, axloqiy tushunchalarning tarkib topishi, yolg'ondan foydalanish ko'rsatkichlarini kamaytirish, yolg'onni idrok etish hamda noto'g'ri, noaniq ma'lumotlarni tarqatish va ularning foydalanuvchisi bo'lib qolmaslik uchun axloqiy-kognitiv kompetentlikni shakllantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada Yolg'onni tadqiq etish xalqaro akademiyasining Germaniya va Rossiyadagi "yolg'on lingvistikasi" bo'yicha olib borilayotgan istiqbolli yo'nalishlarida shaxsning yolg'onga nisbatan "kognitiv immuniteti"ni shakllantirish, lingvistik madaniyatni, optik-kinestik, paralingvistik, ekstralingvistik noverbal kommunikatsiya tizimlari orqali yolg'on ma'lumotlarni farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish masalalari shular jumlasidandir.

Respublikamizda so'nggi yillarda shaxslararo munosabatlarda yolg'on ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish uchun ularni tarqatishning oldini olish, shaxsda axloqiy tushunchalarni shakllantirish, o'sib kelayotgan avlodni yolg'onni va rostni farqlay oladigan yuksak ma'naviyat egalari qilib tarbiyalash bilan bog'liq qator ishlar amalga oshirilmoqda. "Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar foyda

¹ <https://liski-news.ru/node/856>.

keltiradi². Shu sababdan, shaxsda yolg'on shakllanishning psixologik determinantlarini aniqlash, ularni analiz qilish va yolg'onni identifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatish, shaxs ma'naviy rivojlanishi tamoyillarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. / "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr.

I BOB. YOLG'ON MAVZUSINING FANDA O'RGANILISH AN'ANALARI

1.1-§. Yolg'on muammolarning tarixiy tavsifi

Har qaysi inson hayot davomida juda ko'p yolg'on va aldovlarga duch keladi. Hayot davomida har kim birovni aldagan, kimlardandir aldangan. Aldovlar, aldanishlar zahirida insonning hayotiy zarurat, o'zini himoya qilish ehtiyoji yotadi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, inson 10 daqiqalik nutqi davomida o'rtacha 3 marta yolg'on ishlatar ekan [128], [129], [131].

Ma'lumki, yolg'onchilik va aldoqchilik salbiy xislat ekanligi muqaddas manbalarda, xalq og'zaki ijodida hamda Sharq mutafakkirlari asarlarida ta'kidlangan. Darhaqiqat, yolg'onchilik muqaddas dinimizda qoralanadigan kabira-katta gunohlardan biridir. Odatda, yolg'oni bilan tanilgan kishilar hech bir jamiyatda qadr topmagan. Haqiqatan ham, bor narsaning teskari xabarini olib kelishlik bu – yolg'onchilikdir. Bir kuni sahobalar Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan so'rashdi: "Ey Allohning Rasuli, mo'min odam baxil bo'lishi mumkinmi?". Payg'ambarimiz: "Ha bo'lishi mumkin", dedilar. Yana ular: "Ey Allohning Rasuli, musulmon odam qo'rqqoq bo'lishi mumkinmi?". Payg'ambarimiz: "Ha qo'rqqoq ham bo'ladi", dedilar. Sahobalar: "Ey Allohning Rasuli, musulmon odam yolg'onchi bo'ladimi?". Payg'ambar alayhissalom: "Yo'q", deb javob berdilar. Aslida baxillik bilan qo'rqqoqlik bitta bo'lganida ham, gunohi yolg'onchilik darajasida bo'lmaydi [142].

Boshqa bir hadisda Payg'ambar (s.a.v.): "Gunohlarning eng kattasi Allohga shirk keltirmoqlik, nohaq qon to'kmoqlik, ota-onaga oq bo'lmoqlik va yolg'on guvohlik bermoqlik", deganlar [137; 24-b.]. Demak, gaplarning eng yomoni bu – yolg'onchilikdir. Hattoki, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Tavsiyamiz shuki, otalar o'z bolalariga biron narsani va'da qilib, keyin uni bajarmay qo'ymasinlar. Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Yolg'onchilik buzuqlikka boshlaydi, buzuqlik esa jahannamga. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yolg'onchi odamga esa yomon baho beradilar. Rostgo'y odam chin so'zi bilan borib, Alloh huzurida siddiq, ya'ni so'ziga sodiq deb yozib qo'yiladi. Yolg'onchi ham borib-borib, Allohning huzurida kazzob, ya'ni yolg'onchi deb yozib qo'yiladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf yolg'onning zararlari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

1. Yolg'on o'z egasini parchalaydi.
2. Yolg'on o'z egasini do'zaxga olib boradi.
3. Yolg'on uzoqni yaqin, yaqinni uzoq qiladigan sarobdir.
4. Yolg'on muruvvat, jamol va chiroyini ketkazadi.
5. Yolg'on aql o'g'risidir.
6. Yolg'onchi xor-u zor bo'ladi.
7. Yolg'on din-u dunyoni buzadi.
8. Yolg'on pastkashlik alomatidir [123; 260-b.].

Islomda yolg'on gunoh hisoblansa-da, uch holatda istisno tariqasida yolg'on ishlatishga ruxsat berilgan. 1. Odamlar orasini isloh qilish. 2. Urushda g'alaba qilish. 3. Oilaning ahilligini saqlab qolish uchun.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan muqaddas manbalar hisoblanmish Qur'on oyatlarida va hadislarda yolg'onchilardan uzoqroq yurish, yolg'on so'zlash eng katta gunohlardan bir ekanligi uqtiriladi.

Imom Buxoriyning axloq-odobga oid hadis namunalarida ham yolg'onchilik salbiy xislat, yomon odat sifatida qoralangan: "Munofiqlikning belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish" – deya ta'kidlangan [137; 13-b.]. Ushbu hadisda yolg'onchilik tuban shaxs xislatlaridan biri bo'lmish munofiqlik belgisi ekanligiga ishora qilinadi.

"Tangri nazdida eng yaxshi gap – rost gapdir. Tangri nazdida eng ma'qul jihod – zolim podshohga aytilgan haq so'zdir [137; 14-b.]. Ushbu hadisda so'zlarning eng yaxshisi rost so'z ekanligi, hattoki rahbarga ham achchiq bo'lsa-da, haqiqatni aytish lozimligi uqtiriladi.

Yuqoridagi hadislarda yolg'on so'zlash gunoh ekanligi, yolg'onning oxiri yaxshilik bilan tugamasligi ta'kidlanadi.

"Uch toifa kishilar borki, Tangri qiyomat kuni ular bilan so'zlashmaydi va rahmat nazari bilan boqmaydi hamda gunohlarini ham kechirmaydi, balki ularni qattiq azoblaydi:

1. Keksa bo'la turib, zino ishlaridan qaytmagan odam.
2. Yolg'onchi podshoh.
3. Maqtanchoq kambag'al.

Sakkiz toifa kishilar qiyomat kuni Tangrining maxluqlari ichida eng yomoni hisoblanurlar:

1. Yolg'onchilar.

2. Mutakabbirlar.

3. Qalblarida mumin birodarlariga nisbatan adovat saqlagan holda, ularni ko'rganlarida mulozamat qiluvchilar..." [137; 17-b.].

Yuqorida keltirilgan hadislarda va'da berib, so'zida turmaydigan rahbarlar hamda umuman yolg'onchilar qiyomat kunida Alloh tomonidan qattiq azoblanishi ta'kidlanadi.

"Yolg'on guvohlik beruvchining oyoqlari yerdan qo'zg'almay turib, Tangri uni do'zaxga ravo qilib qo'yadi" [137; 18-b.]. Tangrining nazdida to'g'ri so'zdan ortiq sadaqa yo'qdir [137; 60-b.].

Ushbu hadisda yolg'on guvohlik beruvchilar to'g'ridan to'g'ri do'zaxga tushishi haqida ogohlantirilib, insonlarni faqat va faqat rost gapirishga chorlanadi.

"Odamlarni sulhga keltirish, arazlashganlarni yarashtirish uchun gapirilgan yolg'on gapning zarari yo'qdir" [137; 19-b.]. Ushbu hadisda qachon inson yolg'on gapirsa bo'ladi, degan savolga javob berilgan bo'lib, yaxshilik, nizolashganlarni yarashtirish uchun ishlatilgan yolg'onning ziyoni yo'qligiga ishora qilinadi. Shunday qilib, muqaddas manba hisoblanmish hadislarda yolg'onchilik kechirib bo'lmaydigan eng salbiy xislat sifatida qoralanadi. Shuningdek, nizolashgan insonlarni yarashtirish, ular orasida shaxslararo munosabatlarni yaxshilash uchun yolg'onni ishlatish mumkin ekanligi ta'kidlanadi.

Birinchi renessans poydevoriga asos solgan Sharq mutafakkirlari ham o'z asarlarida yolg'onchilikning salbiy illat ekanligiga ishora qilgan.

Jumladan, Forobiy o'zining "Aql to'g'risidagi" risolasida: "O'zida o'n ikki tug'ma xislatni" birlashtirgan kishigina axloqli odam bo'lishini ta'kidlab, ushbu sifatlar orasida:

"... haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevish, yolg'on hamda yolg'onchilarga nafrat bilan qarash" xususiyatini tilga oladi [135; 110-b.].

Yuqoridagi fikrlardan Forobiy komil inson tarbiyasiga e'tibor qaratgan holda axloqli kishi, rost va yolg'onni ajrata oladigan, adolatni hamda haqiqatni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan, ulardan jirkanadigan bo'lishi kerakligini uqtiradi [110].

Beruniy o'zining "Hindiston" asarida yolg'on xabar tarqatuvchilar haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'mashib qolib, go'yo unga shu vazifa yuklatilgandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi..." [10], [11].

Ba'zi kishi (yolg'on xabar tarqatuvchiga) taqlid qilib, bilmasdan yolg'on xabar tarqatadi... Bu xabarchilar birinchi marta ataylab yolg'on xabar tarqatgan kishi bilan keyin bu yolg'on xabarni eshituvchi oralig'ida vositachi bo'ladilar. Oradan taqlidchilar tushirib yuborilsa, biz sanab o'tgan yolg'onchilarning bittasi qoladi, xolos.

Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi. "...yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi, zulm, yolg'on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan o'zlashtirib olish, o'g'irliklarning ko'plab sodir bo'lishi oqibatida dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo'ladi" [11; 16-b.].

Yuqoridagi fikrlarida Beruniy odamlar orasida yolg'on xabar tarqatishga odatlanib qolgan yolg'onchilar ham borligi, tarqatilgan har qanday xabarga ishonavermasdan, boshqalarga tarqatmasdan uni tekshirib ko'rish lozimligi, yolg'onchilik salbiy shaxs xislati ekanligiga ishora qilinadi.

Abu Ali ibn Sino ham o'z asarlarida yolg'onchilik shaxsning salbiy xislati ekanligiga ishora qilgan. "Odamlarning chetlanishi lozim bo'lgan yomon xulq-atvorlar turiga yuqorida sanab o'tilgan yaxshi fazilatlarga qarama-qarshi bo'lgan yana quyidagi yomon xulqlar ham kiradi: hasadgo'ylik, ko'rolmaslik, chaqimchilik, ig'vogarlik, yolg'onchilik, besabrlilik, sirni oshkora qilishlik kabi xulqlarning kishida bo'lishi juda ham yomon nuqson sanaladi" [44; 39 -b.].

Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar singari yolg'onchilikni eng salbiy xislatlardan biri ekanligini ta'kidlaydi, shuningdek, ba'zi vaqtlarda so'zlarni sal o'zgartirib, ramziy ma'noda ham ishlatilsa, insonlarga yoqishi haqida fikr bildirgan [91].

Shayx Najmiddin Kubro "Fi-al-adab" ("Odob qoidolari") risolasida: "Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan... To'g'ri so'zlikdan ko'ra go'zalroq ziynatni ko'rmadim" – rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'lagan [135; 14 -b.].

Bu fikrlarida mutafakkir odobli inson faqat rost gapirishi, rostgo'ylik eng go'zal ziynat deb, yolg'on gapirmaslikka o'z zamondoshlarini undagan.

Yirik shoir va olim Ahmad Yugnakiy "Hibat-ul-haqoyiq" asarida yolg'on va yolg'onchilikni qoralab, to'g'riso'zlik, rostgo'ylikni tarannum etgan:

"Tili yolg'on yerdan yiroq tur doim,
Sen kechir umringni to'g'ri muloyim.
Og'iz, til bezagi to'g'ri so'z beshak,
To'g'ri so'zlab dilu tilingni bezat.
To'g'ri so'z asaldek, yolg'oni basil,
Basil yeb ichitma og'iz, ye asal" [135; 211-b.].

Yugnakiy ham yuqoridagi misralar orqali yolg'onchi erkaklardan ayollar uzoqroq yurishi, hayotni, umrni to'g'ri so'zlab to'g'ri kechirish, yolg'on so'zlab obro'ni to'kmaslik zarurligini uqtirgan.

Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun Amir Temur tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, pand-nasihatlarini ko'zdan kechirish kifoya. Amir Temurning: "Boshingga qilich, kelsa ham rost so'zla!!!"- degan hikmatli fikrlari eng qiyin vaziyatda, qilich bilan qo'rqitilib, hayot yoki o'limni tanlash vaziyatida ham inson rost gapirishi zarurligi ta'kidlangan.

Amir Temur davlatni va qo'shinni boshqarishda o'n bir sifatga amal qilgan. Ulardan oltinchisi: "Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim"[136; 229-b.].

Bu fikrlari bilan bobokalonimiz rahbar har ishda adolat, haqiqat bilan yondashish zarurligi hamda idrok qilinayotgan voqelikdagi rostni yolg'ondan ajratish muhimligini ta'kidlagan.

O'zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy "Hayratul-Abror" asarida yolg'onni ko'p ishlatadigan insonlar musulmon emas deya quyidagi misralarni bayon etadi:

"Ulki shior ayladi yolg'on demak
Bo'lmas ani eru musulmon demak..."
....Har kishining kim, so'zi yolg'on esa
Aylama bovar, nechakim chin desa" [71; 25 -b.].

Bu bilan shoir yolg'on gapiradigan insonning rost gapiga ham ishonmaslik kerak, degan g'oyani ilgari suradi [73].

Shuningdek, Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" asarida ham yolg'onchilik salbiy xislat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi:

"Necha bo'lsa yolg'onchi el arjumand,
So'zi anjuman ichradur nopisand...
Agar tuzluk o'lsa kishining ishi,
Ne vasf aylay olgan ishini kishi..." [72; 48-b.].

Shunday qilib, buyuk allomalar tomonidan yolg'on va yolg'onchilik masalalari bo'yicha ilgari surilgan fikrlarini tahlil qildik. Yolg'on, yolg'onchilik salbiy xislat ekanligi qadim-qadimdan xalq og'zaki ijodida, jumladan maqol va matallarda ham o'z aksini topgan.

Jumladan, "Yov makrini yolg'on yashirar", "Yolg'on aytgan kishining xatari bor ishining", "Yolg'on aytib foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan.

Rost aytib zarar ko'rsang, oxiri foyda toparsan" kabi maqollarda yolg'onning zarari, inson o'z faoliyatida yolg'on ishlatib hech qachon foyda ko'rmasligini, yolg'on aralashgan joyda hech qachon unum bo'lmasligi, bu ish har qachon xavfli ekanligi ta'kidlanadi [69].

Shu bilan bir qatorda yolg'on shunchalik qabih, salbiy sifat sifatida qoralanadi: "Yolg'on gapirib yashagandan, rost gapirib o'lgan yaxshi.

Yolg'on gapning chuvi chiqar. Yolg'on yetmish yil yerda yotsa ham, shurvi chiqar" [134]. Yuqoridagi maqollarda yolg'onchining yolg'oni bir kunmas bir kun baribir ommaga ma'lum bo'ladi, shuning uchun iloji boricha yolg'onni ishlatmaslik zarurligiga ishora qilinadi.

Komil inson doimo to'g'ri so'zlashi, imkon qadar yolg'on ishlatmaslik zarurligiga quyidagi maqollarda ishora qilinadi: "Yolg'onchiga qo'shilma, to'g'ri so'zing yashirma. Yolg'onchida or bo'lmas, to'g'ri so'zli xor bo'lmas.

Yolg'onchidan shon qolmas, nomidan nishon qolmas. Yolg'onchining guvohi yonida yurar. Yolg'onchining guvohi – qasam. Yolg'onchining yonidan o'tma, rostgo'yni yonidan ketma" [134].

Yuqorida keltirilgan maqollarda imkon qadar yolg'onchilardan uzoqroq yurish, ularga qo'shilmaslik, hatto uning oldida ham o'tirmaslik zarurligiga ishora qilinadi.

Yolg'on haqida nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodida, balki boshqa xalqlarning maqollarida ham qiziqarli fikrlarni uchratish mumkin. "Xushomad qilinadigan haqiqatan ko'ra, foyda keltiradigan yolg'on afzaldir", deyiladi bir uyg'ur maqolida. "Yaxshi maqsad sari qaratilgan yolg'on, adovat qo'zg'atuvchi haqiqatan afzal", – deyiladi tojik xalq hikmatida. Suriyada "yolg'onga o'xshagan haqiqatan ko'ra, rostga o'xshagan yolg'on gapirgan afzal" - degan naql bor. "Agar yolg'on bo'lmasa, haqiqat ham bo'lmaydi" va "aqlli yolg'on ahmoq haqiqatan afzaldir" degan fikrlarni rus maqollari va matallarida uchratish mumkin. "Gap tuhmatdir. Sukunat yolg'on. Nutq va sukunatdan boshqa yo'l bor" - deya Xitoy aforizmi taklif qilinadi.

Xulosa o'rinda shuni aytmoqchimizki, yolg'on so'zlash yoki yolg'on guvohlik berish Islom dinida hamda barcha xalqlarning maqol va matallarda hamda Sharq mutafakkirlari tomonidan qat'iy qoralanadi. Qur'oni karimda yolg'on haqida bir yuz oltmish yettita oyat bor. Yolg'onning jamiyatga ham, shaxsga ham zarari shunchalar ko'pki, bularni sanab tugatish qiyin. Yolg'on uni gapirgan odamni ko'pchilik orasida sharmandai sharmisor qiladi, gapining subuti qolmaydi, yolg'on uzoqni yaqin, yaqinni uzoq qiladigan sarobdir. Yolg'on aql o'g'risidir, yolg'on kishining din va diyonatini buzadi.

Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar tahlili shundan darak berib turibdiki, yolg'onchilik munofiqlikning belgisi, salbiy shaxs xislati ekanligi, inson har qanday vaziyatda ham rost va faqat rost gapirishi uqtirilganligining guvohi bo'ldik. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda Sharq allomalarining ilmiy-nazariy qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning asosiy tushunchasi hisoblanmish yolg'on va uning asosiy turlariga navbatdagi bo'limda to'xtalib o'tamiz.

1.2-§. Yolg'on va uning turlari, determinantlari, funksiyalari

Hayot davomida hech qachon hech kimni aldamagan odamni topish qiyin. Umuman, hech qachon birov tomonidan aldanmagan odam ham topilmasa kerak. Albatta, atayin g'arazli maqsadlarda ishlatilgan yolg'on bilan beozor hazil-mutoyiba yo'lidagi yolg'onni, firibgarlik, tovlamachilik, tuhmat va chaqmacha qarlik vositasi bo'lgan yolg'on bilan buzilgan rishtalarni tiklash, nizo va nifoqning oldini olish maqsadiga xizmat qiluvchi

yolg'onni tenglashtirib bo'lmazligi haqida uzoq bahslashish mumkin. Ammo har xil niyatlarga asoslangan yolg'onga har birimiz, har kuni duch kelishimiz yoki duch kelganlar haqida xabar topishimiz va shunda, yolg'on afsuski, odamlar hayotida chuqur ildiz otib ketgani haqida o'zimizga yana va yana iqrar bo'lishimiz tayin.

Yolg'on o'zi nima degan tabiiy savol tug'iladi? O'zbek tilining izohli lug'atidagi ta'rifga ko'ra: "**yolg'on** 1. sft. *Haqiqatga zid, noto'g'ri; haqiqatda bo'lmagan*. 2. sft. *Haqiqiy emas, soxta, yasama; yolg'ondakam*" [133; 36-b.]. Bunda yolg'on so'zi sifat sifatida kelib, haqiqiy emas, soxta narsani anglatadi.

Shuningdek ushbu lug'atda: "**yolg'onchilik**" **yolg'on** gapirishlik; kazzoblik [133; 37-b.]— deya ta'riflanadi. Yuqorida keltirilgan "yolg'on" o'zagidan yasalgan so'zlarning barchasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor bersak, haqiqatni yashirish, aldash, soxta so'zlash kabi ma'nolarni anglatishi ma'lum bo'ldi.

Ushbu lug'atda "aldov" tushunchasiga berilgan ta'rif bilan ham qiziqdik. O'zbek tilining izohli lug'atida "aldov" tushunchasiga yaqin "aldamoq" fe'lining ta'rifi keltirilgan [133; 69-b.]. "**Aldamoq**" — 1. Yolg'on-yashiq gaplar, va'dalar bilan laqillatmoq, avramoq. 2. Yaxshi gap, va'da va sh.k. bilan yo'lga solmoq, ko'ndirmoq. 3. Yo'ldan urmoq, yo'ldan ozdirmoq. 4. Yolg'on gapirmoq, yolg'onchilik qilmoq. 5. Noto'g'ri tasavvur tug'dirmoq, chalg'itmoq. Izohli lug'atdagi ta'riflarga e'tibor bersak, bu ikki tushuncha sinonim sifatida haqiqatni buzib ko'rsatish, atrofdagilarda noto'g'ri tasavvur uyg'otish sifatida tushuniladi.

Yolg'onchilik muammosi turli fanlar vakillari tomonidan qiziqib o'rganilgan. Jumladan, falsafa, mantiq, axloq va huquqshunoslik fanlarida o'z predmeti nuqtayi nazaridan yolg'onchilik muammosi talqin etilgan. Ulardan birinchisi fanlarning otasi hisoblangan falsafada yolg'onchilik muammosi yoritilishiga e'tiboringizni qaratamiz.

Yolg'onchilik va haqiqat muammosi B.Spinoza asarlarida uning haqiqatni o'rganish usullari ta'limotida aks etgan. Spinoza yanglishishning uch xil turini ko'rsatadi: fiksiya (fantastik), yolg'on va shubhali g'oyalar. Uning fikricha, fiksiya bu narsalarning zaruriy mavjud bo'lishidir. Umumiy, mavhum g'oyalardan olingan bilimlar fiktiv bo'ladi. Spinozaning ta'kidlashicha, yolg'on narsalarga zarur, lekin mumkin emas deb qarashdir, uning

fiksiyadan farqi zarurligi yoki mumkin emasligi ta'kidlanadi. Shubhalanish esa qandaydir noaniq g'oya asosida paydo bo'ladi. "Haqiqatan ham shubhalanish – qandaydir ta'kid yoki rad etish oldida ruhning qaror qabul qila olmasligidir, agar shaxs bu narsaga duch kelmaganida bu narsa haqidagi bilim mukammal bo'lmas edi. Shuning uchun shubhalanish doimo narsalarning aniq tartibsiz tadqiq etilishi natijasida vujudga keladi" - deya ta'kidlaydi Spinoza [103; 128-b.].

G.Gegel asarlaridagi yolg'on ma'lumot haqidagi fikrlar ham qiziqish uyg'otadi. "Ma'lum narsalar – hammaga ma'lum bo'lgani uchun, bilib olinmagan. Oddiy o'z-o'zini va boshqalarni aldash – ma'lum narsalarni bilish va ular bilan cheklanib qolishdan iboratdir...". Gegel haqiqat va yolg'onchilikning mustaqilligi, ularning bir-biridan alohidaligi, rost va yolg'on o'z mohiyatiga ko'ra umumiylikka ega emasligi haqidagi fikrlarga qo'shilmaydi: "Haqiqat tayyor holda beriladigan, cho'ntakka yashiringan tanga emas. Yolg'oni ham, yovuzligi ham berilmagan. Haqiqat yovuz va yolg'on bo'lsa ham shaytonday yomon emas, uni shayton sifatida qarab chiqish ularni maxsus biriga nisbatan ular o'z mohiyatiga ega" [16; 25 -b.].

I.Kant o'z zamonasida haqiqat va yolg'on orasidagi mantiqiy muammolarni hal qilishga o'rganib, haqiqat predmet haqidagi bilimlarga mosligi haqidagi hamma tomonidan e'tirof etilgan fikrning qarama-qarshi ekanligiga e'tibor qaratdi. I.Kant tomonidan yolg'on ma'lumotning fenomenologik muammolari "Axloq metafizikasi" asarida yoritilgan bo'lib, unda "Yolg'on haqida" maxsus bo'lim aks etgan. Uning ta'kidlashicha, yolg'on – insonning o'z oldidagi burchlarini buzishdir. Shu bilan birga, boshqalarni huquqlari buzilgan yolg'onda haqiqat o'zgartirilgan deb hisoblash kerak[48].

Kant ichki va tashqi yolg'onni ajratadi. Tashqi yolg'on shaxsni boshqalar oldida nafratlanish predmetiga aylantirsa, ichki yolg'on esa, undan ham yomon bo'lib, ko'z o'ngida o'zi insoniyatning qadr-qimmatini haqoratlaydi [49; 47-b.].

Yolg'on ma'lumotning fenomenologiyasida axloqiy yondashuv I.Kant tomonidan amalga oshirilgan. Uning ta'kidlashicha, "yolg'on har doim kimgadir, alohida olingan shaxsga bo'lmasa, umuman insoniyatga ziyon keltiradi, haqiqatan foydalanmaslikka olib keladi [49; 258 -b.].

Yolg'on muammosi huquqiy yondashuv vakillari tomonidan har tomonlama o'rganilgan. Yolg'on ma'lumot fenomenologiyasida huquqiy

jihatlar firibgarlik tushunchasi orqali aks ettiriladi. Huquqshunoslarning fikriga ko'ra firibgarlik, soxta hujjatlarni tayyorlash va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, soxta diplom asosida ishga joylashish holati bilan, shaxs lavozimga ega bo'lmay turib, ish haqi olish holatlarini farqlash zarur.

Huquqshunoslar firibgarlikda faol va passiv aldovni farqlaydilar. Faol aldov jinoyatchining jabrlanuvchini adashtirish uchun haqiqatni buzib ko'rsatishdir. Passiv aldovga esa shaxsning mol-mulkni berishni istamasligi, yolg'on va'dalar, kelajakdagi haqiqiy niyatlarini yashirish ham kiradi [105; 42-b.].

Yolg'on – bu narsalarning haqiqiy holati haqida mos bo'lmagan faktlar haqida indamaslik yoki ongli ravishda haqiqiy bo'lmagan faktlarni tasavvur qilishdir. Donishmandlar va faylasuflar ming yillar davomida yolg'on mavzusida bahslashadilar, ammo yolg'on haqidagi bilimimizni, bu hodisani tushunishimizni qandaydir tarzda umumlashtirishga urinishlar yaqinda boshlangan. Yolg'onning ko'plab tasniflari mavjud bo'lib, ular yolg'on muammosiga mualliflarning yondashuvlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Eng mashhurlari F.Bekon, Abd ar-Rahman, Yu.Sherbatix, P.Ekman, V.Znakov, D.Dubrovskiy tasniflaridir.

Yolg'onlikning birinchi muhim tasniflaridan biri, ingliz faylasufi Frensis Bekon tomonidan berilgan. "Yangi organon" risolasida u aqlni aldanishlardan yoki o'zi aytganidek "idollar"dan tozalash usulini taklif qilgan. Biroq, Bekon yolg'on va aldov haqidagi bilimlarni tartibga solish istagida birinchi bo'lmagan [9]. Bekondan ancha oldin yolg'onning xilma-xilligini tushunishga urinish arab mutafakkiri Abd ar-Rahman tomonidan amalga oshirilgan. Unda u o'sha davr Sharqining haqiqiy aholisi – podshohlar, sultonlar, vazirlar, amaldorlar, savdogarlar va tabiblar tomonidan qo'llanilgan yuzlab yolg'on holatlarini keltiradi. Shuningdek, u afsonaviy mavjudotlar – farishta va jinlarning hiyla-nayranglarini tasvirlaydi. U risolada makkorlik tirikchilik vositasiga aylangan kishilar toifalarini ham sanab o'tadi. Bular lo'lilar, sehrgarlar, soqollari yopishtirilgan ayollarni ko'rsatadigan yarmarka egalari, shuningdek, janglarda o'zini ko'r yoki nogiron qilib ko'rsatadiganlardir.

Abd ar-Rahman firibgarlarning ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib, turli hiyla va nayranglarni tasniflaydi. Bu usul to'liq muvaffaqiyatli bo'lmasligi mumkin, chunki bir xil aldash usuli ko'p marta takrorlanishi mumkin. Shuning uchun Yu.Sherbatix o'zi tomonidan to'plangan yolg'on holatlarining

o'ziga xos tasnifini kiritdi. "U sof aldash (dezinformatsiya), amfiboliya (ifodaning noaniqligi), almashtirish (obyektlar yoki odamlar), yolg'on guvohlik berish, qasamyod qilish, yolg'on xatlar (soxta va anonim), tuhmat, ataylab yolg'on bashorat qilish, da'vogarlik, ig'vogarlikni ajratib ko'rsatdi" [127; 62-b.].

Yolg'onga bag'ishlangan asarlarning aksariyat mualliflari yolg'on va aldovni inson mavjudligining deyarli barcha sohalariga taalluqli ekanligini ta'kidlashgan [57], [58]. Pol Ekmanning ta'kidlashicha, "yolg'on gapirish shunchalik tabiiyki, uni inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga zarar yetkazmasdan qo'llash mumkin" [128; 18-b.].

D.I. Dubrovskiy "Aldov" monografiyasida aldov shaxslar, guruhlar, sinflar, xalqlar va davlatlarning manfaatlarini himoya qilish hamda amalga oshirish vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Aldovga ijtimoiy institut (davlat organi, idora, jamoat tashkiloti va boshqalar) funksiyasi sifatida ham qarash mumkin. Aldov ijtimoiy qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin, egoistik izolyatsiyani, raqobatni, shuningdek, o'z manfaatlari va maqsadlariga boshqalarning hisobidan yoki boshqalarning xohishiga zid ravishda erishishning barcha turlarini ifodalaydi. "Aldovning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri shundaki, u turli xil yoki amalda mos kelmaydigan manfaatlar sharoitida mavjud kommunikativ tuzilmalarni saqlab qolish imkoniyatini ta'minlashga qodir" [29; 34-b.].

Yolg'on, aldov, rost emas kabi ijtimoiy-psixologik hodisalarni tushunish va tavsiflash qanday yondashuv asosida ko'rib chiqilishiga bog'liq ravishda farqlanadi. Agar biz aldovga yolg'on ma'lumotni uzatish sifatidagi kommunikativ yondashuvdan nazar salsak, unda biz g'irt yolg'on, yarim haqiqat, indamaslik kabi turlarini ajratishimiz mumkin. Shunga o'xshash yondashuvga tayanib, V.V. Znakov yolg'on, aldov va rost emas turlariga ajratgan. U rost emasni yolg'onning shunday turiga kiritadiki, natijada retsepiyent noto'g'ri xulosaga kelishi mumkin, deya ta'kidlaydi [39], [40], [41], [42], [43]. Bunday yondashuv juda to'g'ri, lekin unda shaxslararo muloqotning axloqiy jihatlari e'tiborsiz qolgan.

D.I. Dubrovskiy o'zining "Aldov" nomli monografiyasida yolg'onga axloqiy nuqtayi nazardan yondashib, yomon niyatdagi va yaxshi niyatdagi yolg'onni ajratgan. Olim aldov jarayoni ishtirokchilariga qarab ham yol-

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. YOLG'ON MAVZUSINING FANDA O'RGANILISH AN'ANALARI	5
1.1-§. Yolg'on muammolarning tarixiy tavsifi.....	5
1.2-§. Yolg'on va uning turlari, determinantlari, funksiyalari.....	11
1.3-§. Yolg'on psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida.....	26
II BOB. YOLG'ONNI IDENTIFIKATSIYA QILISH MUAMOSINING EMPIRIK O'RGANILISHI	41
2.1-§. Yolg'onni aniqlash usullari va tadqiqot metodikalari tavsifi.....	41
2.2-§. Yolg'on haqidagi tasavvurlar va uni qo'llanilishining xulq-atvorda namoyon bo'lishi.....	51
2.3-§. Ijtimoiy-psixologik moslashish bilan yolg'onning o'zaro aloqasi.....	66
III BOB. YOLG'ONNI IDENTIFIKATSIYA QILISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	72
3.1-§. Yolg'onchilik identifikatsiya qilishning metodologik asosi.....	72
3.2-§. Yolg'on va emotsiyalar orasidagi bog'lanishlar.....	78
3.3-§. "Yolg'on: payqash tushunish, munosabat bildirish" nomli dastur va uning samaradorligi.....	84
XULOSA	94
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	98

NISHANOV SARVAR YULDIBOY O'G'LI

**YOLG'ON VA ALDOV
PSIXOLOGIYASINI
FENOMENOLOGIK XUSUSIYATLARI**

(Monografiya)

Toshkent – «Ilm-fan va innovatsiya» nashriyoti – 2026

Muharrir:	M.Hayitova
Texnik muharrir:	M.Tursunov
Musavvir:	Sh.Zoxidova
Musahhih:	S.Muratova
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Maripova

E-mail: innovatsiya.nashriyot@mail.ru Tel.: +99897705-90-35

Nashr lits. № 4913-3160-38f4-4927-7ad7-2416-2546, 26.02.2021.

Bosishga ruxsat etildi 23.06.2026.

Bichimi 70x100 ¹/₁₅. «Times New Roman» garniturası.

Raqamli bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 8,5. Nashriyot bosma tabog'i 7,75.

Tiraji: 50. Buyurtma № 28.